



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO'MITASI

## SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI

### BUYRUQ

«13» 11 2021yil № 572

Samarqand sh.

O'zbekiston Respublikasi veterinariya va  
chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi  
raisining 2021-yil 26-oktabrdagi  
114-i/ch-buyrug'i to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi  
raisining 2021-yil 26-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul  
dagagi PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 114-i/ch-buyrug'i ijrosini  
ta'minlash maqsadida

### B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 6-sentabrdagi 27-buyrug'i (ro'yxat raqami 3319, 2021-yil 8-sentyabr) hamda O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisining 2021-yil 26-oktyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul dagagi PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida" 114-i/ch-buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi faoliyati to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Mazkur buyruqni o'rnatilgan tartibda soha prorektorlari, barcha bo'lim boshliqlari va fakultet dekanlariga yetkazilishini ta'minlash devonxona mudirasi zimmasiga yuklatilsin.
4. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor

X.Yunusov



Samarqand veterinariya meditsinasi  
instituti rektorining 2021-yil 13  
512-sonli buyrug‘iga

## Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi nizom

Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagli PQ-5177-son ”Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limining (bundan buyon matnda Nazorat bo‘limi deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Nazorat bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti (bundan buyon matnda Institut deb yuritiladi) rektorining qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu nizomga amal qiladi.

2. Nazorat bo‘limi Institut va filiallar, texnikumlar va litseyda korrupsiya holatlarini barvakt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga mas’ul hisoblanadi.

### 2-bob. Institutning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limini tashkil etish

3. Nazorat bo‘limi o‘z faoliyatida bevosa Institut rektoriga bo‘ysinadi.
4. Nazorat bo‘limi boshlig‘i Institut tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda O‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga kabo‘l qilinadi.
5. Nazorat bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi.

Bunda, Institut tomonidan Agentlikka Institut rektorining Nazorat bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.

Ushbu taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi. Taqdimnomaga xodimni lavozimidan ozod etish sabablari va motivlarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

6. Agentlik tomonidan Nazorat bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan Nazorat bo‘limi boshlig‘i taqib qilinayotganligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lsa, ushbu masalada Nazorat bo‘limi boshlig‘i bilan suxbat o‘tkazilishi mumkin.

7. Quyidagilar Nazorat bo‘limi boshlig‘i lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

Nazorat bo‘limi boshlig‘i lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

Nazorat bo‘limi boshlig‘ining zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun taqib qilinganligi holati aniqlanganda.

8. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, tegishli Institutga Nazorat bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

### **3-bob. Nazorat bo‘limining asosiy maqsadi, vazifa va funksiyalari**

9. Nazorat bo‘limining asosiy maqsadi Institutda, shuningdek, uning filiallari, texnikumlar va litseyda (bundan buyon matnda Institut tizimi deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO 70012016 xalkaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvakt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy hatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, Institut tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Institut tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat.

10. Quyidagilar Nazorat bo‘limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;

Institutda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minalash va nazorat qilish; korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtiroy etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

11. Nazorat bo‘limi o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga karatilgan ichki idoraviy hujjatlar loyixalarini ishlab chiqadi;

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Institut rektoriga kiritadi;

Institutning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Institut tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyixalarini institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbo'lligi va dolzarbligi nuqtayi nazardan baholaydi va xulosalar beradi;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga karatilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi.

b) Institutda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Institutda korrupsiyaviy xavfxatari yukori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

Institut tomonidan uxshash huquqbazarliklar sodir etilishi extimolini baholash maqsadida davlat xokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot tuplaydi; maxsus axborot aloka kanallari orkali institut xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni taxlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Institutda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va tulik aks ettirib borilishini nazorat qiladi; davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini taxlil qilishda va Institut bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan xar kanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchlilagini tekshirish jarayonida ishtirop etadi;

Institut xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi; korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloka kanallarining faoliyat natijalarini taxlil qiladi va taxliliy materiallarni Institut xodimlariga yetkazadi;

Institut faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida axoli va xodimlar orasida so'rovlari o'tkazadi; korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning bo'zilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarlilagini nazorat qiladi; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Institutda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni taxlil qiladi; xar chorakda va Institut rektori talabiga kura Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardag'i korrupsiyaviy holat haqida Institut birinchi rahbariga ma'lumot kiritib boradi;

v) Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini sa'marali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Institutga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 7001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalkaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi; institut xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid kismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Institut xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yukori bo'lган lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq Institutning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Institut tizimi xodimlari va fukarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Institutning rasmiy veb-saytidagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi saxifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Institut tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Institutning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjalariга rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Institut tizimidagi korrupsiyaviy xatgi-xarakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari so'radi va unda ishtirok etadi; odob-axlok komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha kabo'l qilingan qarorlarning xolisligi va maqbo'lligini tekshiradi; amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Institut tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma(shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga karatilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlardan boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Institut faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjalariга hamda xalkaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

axolining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi; qonunchilik hujjalari bilan Institut zimmasiga

yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlardan yuboradi va ularning so'rovlari javob berishda ishtirok etadi;

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarini jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; korrupsiyaviy hatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muxofaza kiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Nazorat bo'limi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni xam amalga oshiradi.

**12.** Nazorat bo'limiga va ularning xodimlariga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **4-bob. Nazorat bo'limining huquq va majburiyatları**

**13.** Nazorat bo'limi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'zi faoliyat yuritayotgan institut xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan taxliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish; xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Institut xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

Institut tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbazarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Institut rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish; o'z faoliyati doirasida Institut tizimiga yozma ko'rsatmalar, topshirik xatlari va tavsiyalar berish;

Institutning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish, tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Nazorat bo'limi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.

**14.** Nazorat bo'limi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarii bajarish; qonunchilik hujjatlari talablariga kat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Institut tizimida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yukori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muxofaza kiluvchi organlarga xabar berish;

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axlok qoidalaring korrupsiyaga oid kismining bo'zilganligi fakti yuzasidan Institut rahbariyatiga ma'lumotnomalar kiritish; xar chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n

kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi choraklik xisobotni Agentlikka taqdim etish;

Nazorat bo‘limi xodimi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga xam ega bo‘lishi mumkin.

15. Nazorat bo‘limi xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo‘ljallangan o‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O‘quv kurslari yoki maxsus seminar treninglar Institut yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

16. Nazorat bo‘limi faoliyatining natijadorligi Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maksadli ko‘rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

Nazorat bo‘limi faoliyatining maksadli ko‘rsatkichlari Institutning birinchi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat bo‘limi faoliyati samaradorligining maksadli ko‘rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

## **5-bob. Yakuniy qoidalar**

17. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

18. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentyabrdagi 27-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3319, 2021-yil 8-sentyabr) bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risida”gi namunaviy nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.